

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alisherovna, R.G. (2025). Turizmning xalqaro iqtisodiy aloqalardagi o'rni. *American Journal of Social Science*, 3(10), 20–26.
2. O'rinbojevna, M. M. M. (2025). O'zbekistonda turizm sohasini rivojlanishida milliy qadriyatlarning o'rni. Shokh Library.
3. Begzod, S., & Bexzod o'g'li, M.M. (2025). Turizm sanoatining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va imkoniyatlari. *Yangi Renessansda ilm-fan taraqqiyoti*, 1(2), 257–263.
2. Turdibekovich, Q.D. (2025). O'zbekiston tashqi siyosati: mustaqillikdan bugunga qadar. *Yangi O'zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali*, 3(1), 416–432.
3. Abdugafurovna, S.S. (2025). O'zbekiston iqtisodiyotida xizmatlar sohasining tutgan o'rni va sohani rivojlantirishdagi muammolar va yechimlar. Shokh Library, 1(10).
4. Sobirjonovich, A.Z. (2025). Turizm infratuzilmasi rivojlanishida turistik klasterlarning ahamiyati. *Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions*, 2(10), 100–104.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ““O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
6. World Travel & Tourism Council. (2025). Travel & Tourism Economic Impact Research: Uzbekistan and global factsheets. WTTC Research Hub. URL: <https://researchhub.wttc.org/product/factsheet-uzbekistan-travel-tourism-economic-impact>
7. UN Tourism. (2025). World Tourism Barometer and tourism recovery data. UN Tourism. URL: <https://www.untourism.int/un-tourism-world-tourism-barometer-data>
8. Шаралдаева В.Д., Максанова Л.Б.-Ж., Шарафанова Е.Е. (2018). Государственно-частное партнерство в сфере туризма в России: состояние и особенности. // Экономика предприятий, регионов и отраслей. № 3-2020. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/gosudarstvenno-chastnoe-partnerstvo-v-sfere-turizma-v-rossii-sostoyanie-i-osobennosti>

Sevinch RAXIMOVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi,
Ilmiy rahbar: Shaxnoza KAMBAROVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti katta o'qituvchi, PhD

NAMANGAN VILOYATI CHUST TUMANINING ETNOTURIZM VA HUNARMANDCHILIK SALOHIYATI ASOSIDA XALQARO TURISTIK OQIMLARNI JALB ETISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida turizm sohasining jadal rivojlanishi va uning milliy iqtisodiyotdagi o'rni ilmiy-amaliy jihatdan yoritilgan. Xususan, Namangan viloyatining Chust tumani misolida hududning turistik salohiyati, tarixiy-madaniy merosi, hunarmandchilik an'analari hamda zamonaviy festivallar orqali xorijiy sayyohlarni jalb

qilish imkoniyatlari tahlil qilingan. Chust do'ppisi va Chust pichog'i kabi milliy brendlarning xalqaro miqyosda e'tirof etilishi, Namangan gullar festivali va boshqa madaniy tadbirlarning hududiy turizm rivojiga qo'shayotgan hissasi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: turizm, Chust tumani, Namangan viloyati, etnoturizm, hunarmandchilik, Chust do'ppisi, Chust pichog'i, Gullar festivali, turistik salohiyat, milliy brend, iqtisodiy rivojlanish, madaniy meros, sayyohlar oqimi, O'zbekiston turizmi.

Аннотация: В статье анализируется стремительное развитие туристического сектора в условиях Нового Узбекистана и его роль в национальной экономике. На примере Чустского района Наманганской области раскрываются туристический потенциал региона, историко-культурное наследие, ремесленные традиции и возможности привлечения иностранных туристов посредством современных фестивалей. Обосновывается международное признание национальных брендов, таких как чустские тюбетейки и ножи, а также вклад Фестиваля цветов и других культурных мероприятий в развитие регионального туризма.

Ключевые слова: туризм, Чустский район, Наманганская область, этнотуризм, ремесла, чустская тюбетейка, чустский нож, Фестиваль цветов, туристический потенциал, национальный бренд, экономическое развитие, культурное наследие, туристический поток, туризм Узбекистана.

Abstract: This article analyzes the rapid development of the tourism sector in the context of New Uzbekistan and its role in the national economy. In particular, using the example of Chust district of Namangan region, the paper highlights the region's tourism potential, historical and cultural heritage, handicraft traditions and opportunities to attract foreign tourists through modern festivals. The international recognition of national brands such as Chust skullcaps and knives, as well as the contribution of the Flower Festival and other cultural events to regional tourism development, are substantiated.

Keywords: tourism, Chust district, Namangan region, ethnotourism, handicrafts, Chust skullcap, Chust knife, Flower Festival, tourism potential, national brand, economic development, cultural heritage, tourist flow, tourism in Uzbekistan.

Kirish

Bugungi globallashuv davrida turizm sohasi mamlakatlarning iqtisodiy o'sishi, xalqaro imiji, madaniy diplomatiyasi va hududiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim strategik tarmoqlardan biriga aylanmoqda. Yangi O'zbekiston sharoitida turizmni rivojlantirish, uning yangi yo'nalishlarini kashf etish va hududlarning mavjud salohiyatidan samarali foydalanish uchun keng imkoniyatlar shakllanmoqda. 2025-yilning 9 oyi davomida O'zbekistonga 8,6 milliondan ortiq xorijiy sayyohlar tashrif buyurgani va bu ko'rsatkich o'tgan yilgiga nisbatan 112,5 foizga ko'p bo'lgani turizm sohasida yangi rivojlanish bosqichi shakllanayotganini ko'rsatadi [1].

Mazkur ko'rsatkich turizm sohasi uchun muhim natija bo'lib, O'zbekiston iqtisodiyotida turizmning ulushi va ahamiyati ortib borayotganini tasdiqlaydi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2030-yilgacha turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor maqsadlari sifatida turizm sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 3,5 foizdan 7 foizgacha oshirish, turistlar sonini 10 milliondan 20 million nafargacha yetkazish hamda jahonda keng taniladigan O'zbekiston turistik brendini yaratish vazifalari belgilangan [2]. Ushbu strategik maqsadlar hududiy turizm salohiyatini chuqur o'rganish va mahalliy brendlarni xalqaro turizm bozoriga olib chiqish zaruratini kuchaytiradi.

Namangan viloyatining Chust tumani istiqbolida turizm sohasining sezilarli darajada kengayishi va hudud iqtisodiyotiga muhim hissa qo'shishi prognoz qilinadi.

Mintaqaning do‘ppichilik va pichoqchilik an‘analari O‘zbekiston etnoturizmi rivojida alohida o‘rin tutadi. Shuningdek, Chust hududida arxeologik ekspeditsiyalar olib borilgani, Chust tarixi “Chust madaniyati” nomi bilan ilmiy adabiyotlarda keng tanilgani hududning tarixiy-madaniy salohiyatini yanada oshiradi. Chust do‘ppilari 1968-yilda Nyu-Dehli, 1969-yilda Monreal, 1970-yilda Tokio va Poznan shaharlaridagi jahon ko‘rgazmalarida yuqori baholangani mazkur milliy hunarmandchilik mahsulotlarining xalqaro e‘tirofga sazovor bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu bois maqolada Namangan viloyati Chust tumanining mamlakat turizm sohasidagi o‘rni, mavjud imkoniyatlari va istiqbollari ilmiy-amaliy jihatdan yoritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Mavzuga oid manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Chust tumanining turizm salohiyati, avvalo, uning tarixiy shakllanishi, madaniy merosi, milliy hunarmandchilik an‘analari va hududiy brendlarning o‘ziga xosligi bilan bog‘liq. Chust tumani 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan bo‘lib, Chatqol tog‘lari etaklaridagi past-baland tekisliklarda joylashgan [3]. Ushbu geografik joylashuv, tabiiy manzara, tarixiy muhit va madaniy qadriyatlarning uyg‘unligi hududda turizmni rivojlantirish uchun qulay asos yaratadi.

Ilmiy va ommaviy manbalarda Chust do‘ppisi milliy brend sifatida alohida e‘tirof etiladi. Chust do‘ppisi o‘zbek xalqining estetik didi, milliy mentaliteti, urf-odatlar va hunarmandchilik maktabini ifodalovchi muhim madaniy atribut hisoblanadi. “Chust do‘ppisi go‘zaldir, har naqshi bir g‘azaldir” degan xalqona ta‘rif ushbu mahsulotning nafaqat kiyim-bosh elementi, balki madaniy identifikatsiya vositasi ekanligini anglatadi. Shu bilan birga, Chust pichoqlari ham qadimiy metallga ishlov berish maktabining mahsuli bo‘lib, ularning qo‘lda yasalishi, ustaning o‘z “imzo” belgisi bilan ajralib turishi xorijiy sayyohlar qiziqishini oshiradi.

O‘zbekiston hunarmandchiligi va amaliy san‘ati bo‘yicha manbalarda Chust hunarmandchiligi milliy amaliy san‘atning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida tavsiflanadi [8]. Chust do‘ppisi va pichoqlari kabi mahsulotlar turizmga suvenir iqtisodiyoti, etnoturizm va mahalliy brendlarning marketingi bilan bevosita bog‘liq. Bu esa hududning turistik jozibadorligini oshirish bilan bir qatorda, aholi bandligi, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Namangan viloyatida o‘tkazilayotgan Gullar festivali ham hududning turistik imijini mustahkamlovchi muhim madaniy tadbir sifatida qaraladi. O‘tgan yilda ushbu bayram doirasida 2,5 million sayyoh “gullar shahri”ga tashrif buyurgani festivalning hududiy turizm rivojidadagi o‘rnini yaqqol namoyon etadi [4]. Festival doirasida Qozog‘iston, Armaniston, AQSH, Turkiya, Xitoy kabi davlatlardan 200 mingdan ortiq sayyohlarning tashrif buyurgani, turli ko‘rgazmalar, dron-shou va illyuziya-shoularning tashkil etilgani Namangan turizmining xalqaro miqyosda tanilayotganini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada Chust tumanining jahon turistik oqimini Yangi O‘zbekistonga jalb qilishdagi istiqbollarini yoritishda tavsifiy, qiyosiy va tahliliy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini turizm, etnoturizm, hunarmandchilik, milliy brend va hududiy turizm salohiyati bo‘yicha mavjud ilmiy-adabiy manbalar tashkil etadi. Amaliy jihatdan esa O‘zbekiston turizmiga oid statistik ma‘lumotlar, rasmiy axborotlar, ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilingan materiallar hamda Chust tumaniga oid tarixiy-madaniy ma‘lumotlar umumlashtirildi.

Tahlil jarayonida mavjud raqamli ko'rsatkichlar – 2025-yilning 9 oyida 8,6 milliondan ortiq xorijiy sayyoh tashrifi, turistlar sonining 112,5 foizga o'sishi, turizmning YIMdagi ulushini 3,5 foizdan 7 foizgacha oshirish maqsadi, turistlar sonini 10 milliondan 20 million nafargacha yetkazish vazifasi, Gullar festivali doirasida 2,5 million sayyoh tashrifi, 200 mingdan ortiq xorijiy mehmonlar ishtiroki, Chust do'ppisining 300 ming so'mga xarid qilinishi hamda hunarmandchilik yo'nalishida 5 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratilgani saqlangan holda ilmiy izohlandi. Bu yondashuv hududiy turizm imkoniyatlarini real faktlar asosida baholashga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar

Chust tumanining turistik salohiyati bir necha asosiy omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, hududning tarixiy-madaniy merosi va arxeologik asoslari Chustni Farg'ona vodiysidagi muhim madaniy makon sifatida tavsiflaydi. "Chust madaniyati" tushunchasining ilmiy muomalada qo'llanilishi bu hududning qadimiy sivilizatsion ildizlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Ikkinchidan, Chust do'ppisi va Chust pichog'i kabi milliy hunarmandchilik mahsulotlari hududning xalqaro turistik brendga aylanishi uchun kuchli asos yaratadi. Uchinchidan, Namangan viloyatida o'tkaziladigan Gullar festivali kabi yirik madaniy tadbirlar xorijiy va mahalliy sayyohlar oqimini oshirishga xizmat qilmoqda.

Chust shahar markazida joylashgan Chust istirohat bog'i va Mavlono Lutfullo bog'i hududga tashrif buyuruvchilar uchun muhim rekreatsion maskanlar hisoblanadi. Bu joylarda sayyohlar mahalliy turmush tarzi, madaniy muhit va gastronomik an'analar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladilar. Xususan, Chust oshining o'ziga xosligi gastronomik turizm nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega. O'zbekistonning turli hududlari ma'lum bir taomlari bilan ajralib tursa-da, Chust oshining mahalliy uslubda tayyorlanishi turistlar uchun noyob tajriba yaratadi.

Namanganda o'tkaziladigan Gullar festivalining xalqaro maqomga ega madaniy tadbir sifatida shakllanishi mintaqaning turistik jozibadorligini yanada oshirmoqda. Festival doirasida 2,5 million sayyohning tashrif buyurgani, shuningdek, Qozog'iston, Armaniston, AQSH, Turkiya, Xitoy kabi davlatlardan 200 mingdan ortiq sayyohlarning kelgani hududiy tadbirlarning xalqaro turistik oqimni shakllantirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Turli ko'rgazmalar, dron-shoular, illyuzion tomoshalar va xalqaro biznes vakillarining ishtiroki festivalni nafaqat madaniy, balki investitsion va iqtisodiy platformaga ham aylantirmoqda.

Chustning hunarmandchilik salohiyati esa etnoturizmning asosiy tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Qadimiy metallga ishlov berish an'analari asosida Chust pichoqlarining mayda soxtaxonalarda tayyorlanishi, ustalarning mahsulotlarga o'ziga xos belgi qo'yishi sayyohlar uchun bevosita kuzatish va tajriba turizmini rivojlantirish imkonini beradi. Bu jarayon xorijiy turistlar uchun nafaqat mahsulot xarid qilish, balki hunarmandchilik madaniyatini amalda ko'rish, milliy qadriyatlar bilan tanishish va mahalliy ustalar mehnatini qadrlash imkonini yaratadi.

Chust do'ppisi esa o'zbek milliy madaniyatining yorqin timsoli sifatida hududiy turizmni rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Chustlik do'ppidoz Nurxon Boyboyevaning Germaniyadan kelgan sayyohga "Ayyub" nusxali do'ppini 300 ming so'mga sotgani, shuningdek, Tojikiston Respublikasiga 10 ta do'ppi jo'natilgani, Turkmaniston va Qirg'iz Respublikasidan ham mijozlar borligi qo'l mehnatiga

asoslangan mahsulotlarning xalqaro bozorda talabga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu holat hunarmandchilik mahsulotlarini eksportbop turistik brendga aylantirish imkoniyatini kuchaytiradi.

Hozirgi vaqtda mamlakatdagi sayyohlik oqimi milliy an'analar, qadriyatlar va urf-odatlar saqlanib qolgan hududlarga yo'nalmoqda. Shu jihatdan Chust sharqona bozori, pichoqchilik, do'ppichilik va boshqa hunarmandchilik yo'nalishlari xorijiy turistlar uchun qiziqarli tajriba maydoni hisoblanadi. Sayyohlarning mahsulotlarni tayyorlash jarayonida bevosita qatnashishi turizmga interaktiv tajriba, madaniy almashinuv va mahalliy iqtisodiy faollikni oshirish imkonini beradi.

Rivojlanib borayotgan raqobat sharoitida xalqimizning amaliy san'at namunalari xalqaro ko'rgazmalarda munosib o'rin egallab kelmoqda. Bu esa Yangi O'zbekistonning madaniy salohiyatini dunyoga tanitish, mamlakatimiz madaniyatiga qiziqishni oshirish va hududiy turizmni rivojlantirishga xizmat qiladi. Chust tumani tajribasi shuni ko'rsatadiki, mahalliy hunarmandchilik, gastronomiya, festival turizmi va tarixiy-madaniy meros uyg'unlashtirilgan taqdirda hudud jahon turistik oqimini jalb qilishda muhim markazlardan biriga aylanishi mumkin.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, Namangan viloyatining Chust tumani O'zbekiston turizmi rivojida istiqbolli hududlardan biri hisoblanadi. Uning arxeologik merosi, geografik joylashuvi, madaniy va dam olish maskanlari, milliy hunarmandchilik an'analari hamda gastronomik o'ziga xosligi ko'p yillardan buyon sayyohlarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Bugungi kunda Chust tumanida hunarmandchilikni rivojlantirish uchun 5 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratilgani hududda turizm va mahalliy iqtisodiyot o'rtasidagi bog'liqlik kuchayib borayotganini ko'rsatadi [5]. Kelgusi yillarda Chustda "Hunarmandlar shaharchasi" barpo etilishi rejalashtirilayotgani esa hududni etnoturizm va hunarmandchilik turizmi markaziga aylantirish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Maqola natijalaridan kelib chiqib, Chust tumanida turizmni yanada rivojlantirish uchun bir qator yo'nalishlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Avvalo, Chust do'ppisi, Chust pichog'i va Chust oshini yagona hududiy turistik brend sifatida targ'ib qilish zarur. Ikkinchidan, hunarmandchilik ustaxonalarini turistlar uchun ochiq ijodiy maydonga aylantirish, mahsulot tayyorlash jarayonida sayyohlarning ishtirokini tashkil etish va master-klasslar tizimini yo'lga qo'yish muhimdir. Uchinchidan, Gullar festivali, Chust bozori va milliy hunarmandchilik yo'nalishlarini birlashtiruvchi tematik turistik marshrutlar ishlab chiqilishi lozim. To'rtinchidan, raqamli marketing, ijtimoiy tarmoqlar, ko'p tilli elektron gidlar va onlayn xaritalar orqali Chust tumanining xalqaro axborot maydonidagi ko'rinishini kuchaytirish zarur.

Umuman olganda, Chust tumanining tarixiy-madaniy merosi, hunarmandchilik an'analari va festival turizmi imkoniyatlari jahon turistik oqimini Yangi O'zbekistonga jalb qilishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish nafaqat hududiy iqtisodiy faollikni oshiradi, balki milliy brendlarni xalqaro darajada tanitish, yangi ish o'rinlari yaratish va O'zbekistonning turistik jozibadorligini kuchaytirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekistonga sayyohlar tashrifi 12,5 foizga ko'paydi // Gazeta.uz. URL:

<https://www.gazeta.uz/oz/2025/10/15/turizm/>

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 16-martdagi 105-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. URL: <https://lex.uz/docs/-7851788>

3. Chust tumani // Wikipedia. URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Chust_tumani

2. Xalqaro gullar festivali yakunlandi // O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. URL: https://uza.uz/oz/posts/xalqaro-gullar-festivali-yakunlandi_610229

3. Namanganda hunarmandchilik yo‘nalishida 5 mingga yaqin yangi ish o‘rni yaratildi // O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. URL: https://uza.uz/oz/posts/namanganda-hunarmandchilik-yonalishida-5-mingga-yaqin-yangi-ish-orni-yaratildi_301397

4. Ikromova F.Y. Boshimda tursa o‘zbekim do‘ppisi. // “Science and Innovation” International Scientific Journal. – 2022. – № 4. B. 53-56. URL: <https://scientists.uz/view?id=858>

5. Namangan haqiqati. Chust do‘ppisi: milliy brendga aylangan meros // Namangan haqiqati gazetasi. – 12-bet.

6. O‘zbekiston hunarmandchiligi va amaliy san’ati ensiklopediyasi. 1-qism. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2016.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8692>

8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Turizm statistikasiga oid ko‘rsatkichlar. URL: <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/53640-turizm-statistikasiga-oid-ko-rsatkichlar>

9. World Tourism Organization. Recommendations on Tourism Statistics. – Madrid: World Tourism Organization, 1993.

Muhlisa TOSHEMIROVA,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi magistranti,
Ilmiy rahbar: Tolib OTABOYEV,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD

SURXONDARYO VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining yashil iqtisodiyotdagi o‘rni va salohiyati ko‘rsatilgan. Shuningdek, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari yashil turizm, suv resurslari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari haqida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energiya, suv resurslari, yashil turizm, barqaror qishloq xo‘jaligi.

Аннотация. В данной статье показаны роль и потенциал Сурхандарьинской области в зелёной экономике. Также освещены перспективы развития зелёной экономики, включая